



O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA “MUHABBAT” KONSEPTINI IFODALOVCHI RAMZIY OBRAZLAR

Sa’dullayeva Madina Qosimovna,
BuxDU 1-kurs tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243890>

Annotatsiya: O‘zbek xalq maqollarida “muhabbat” konseptini ifodalovchi ramziy obrazlar xalqimizning urf-odatlarini, qadriyatlarini, psixologiyasini aks ettiruvchi kuchli badiiy ifoda vositalaridan biridir. Maqollarda muhabbatning tabiat, hayvonlar, oziq-ovqat va kundalik boshqa elementlar orqali ramzlanishi aks etadi va ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘z: gul, bulbul ko‘z, yurak, ishq, muhabbat, ramz, kundalik buyumlar.

O‘zbek xalq maqollari, asrlar davomida shakllangan xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va qadriyatlarini aks ettiruvchi boy manbadir. Ular nafaqat axloqiy, balki insoniy emotsional va ruhiy jihatdan ham bugungi kunning boy adabiy me’rosi sifatida o‘rganilib kelinadi. Ayniqsa, muhabbat, shaxsiy munosabatlar va insoniy tuyg‘ularni ifodalovchi ramziy obrazlar maqollarda keng tarqalgan. Ushbu maqolada maqollaridagi “muhabbat” konseptini ifodalovchi ramziy obrazlar, ularning ma’nolari haqida so‘z boradi.

Gul va bog‘– muhabbatning go‘zalligi va nozikligi. O‘zbek xalq maqollarida “gul” va “bog‘ ” kabi ramziy tasvirlar muhabbatning go‘zalligi, nozikligi va e’tiborli parvarish talab qilinishini ifodalaydi. Gul – bu tabiatning eng nafis va rang-barang unsurlaridan biri bo‘lib, muhabbatning toza sof va maftunkor sifatlarini tasvirlashda ishlatiladi. Masalan: “Ko‘ngil gulini sevgi suvi sug‘orar”, “Sevgining aslini bulbuldan so‘ra, Gulzorning qadrini guldani”, “Gul tikonsiz bo‘lmas yor jafosiz bo‘lmas”, “Gulni sevgan tikoniga ham chidaydi”, “Gulni gul dermu kishi gulning tikoni bo‘lmasa Yorni yor dermu kishi yorning jafosi bo‘lmasa”.

Bu maqollar muhabbatni parvarish qilish, unga e’tibor berish, g‘amxo‘rlik qilish kerakligini bildiradi. Gul parvarish qilinsa, o‘sadi va go‘zal bo‘ladi, ayni paytda muhabbatni asrab qolish uchun ham unga e’tiborli bo‘lish lozimligini uqtiradi.

Ko‘z – o‘zbek xalq maqollarda ko‘p ishlatiladigan ramziy tasvirlardan biri bo‘lib muhabbatni tushunish uni his qilish va idrok etish ramzi sifatida ishlatiladi. “Ko‘z” obrazining maqollarda keng tarqalganligining yana bir sababi shundaki, uning inson qalbi bilan bog‘liqligidir. Sevgining ko‘zi ayb ko‘rmas. Ko‘z qarashin qo‘ymas, ko‘ngil diydorga to‘ymas kabi.

“Muhabbat” konsepti ifodasida ko‘plab ramziy obrazlar tabiat va hayotdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib muhabbatning go‘zalligi, kuchi va ba’zida



og‘riqlarini tasvirlaydi Quyida ba’zi ramziy obrazlar va ularning muhabbat bilan bog‘liq ayrim tasvirlar haqida fikr yurutamiz:

Quyosh – “Sevgan qalbdan quyoshdek nur bo‘lsin” Quyosh – muhabbatning yorqinligi, harorat va o‘zgaruvchi kuchning ramzi. Quyoshning iliqligi kabi, muhabbat ham qalbni yoritadi va hayotni o‘zgartiradi

Oy va yulduzlar – Oy nur sochsa yulduzlar ko‘rinadi.” Oy muhabbatni, yulduzlar esa unga bo‘g‘liq bo‘lgan his-tuyg‘ularni anglatadi. Bu obraz sevgan insonlarning bir-birini to‘ldirishiva birgalikda yorqin bo‘lishini tavrilyadi.

Oltin – Oltin, qimmatbaho va noodatiy qiymati bilan muhabbatning yuksakligi go‘zalligi va uning qadriyatini anglatadi. “Sevganing – oltindan aziz” ushbu maqol qadrlilik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Daryo va suv– Daryo va suv ko‘plab maqollarda muhabbatning tinimsiz oqishini, sevgi tuyg‘ularining izchil rivojlanishini ramzlaydi. Suvni to‘xtovsiz oqib ketadiga narsa sifatida tasvirlash muhabbatning davomiyligini anglatadi. Ko‘ngil, ko‘ngildan suv ichar”, “ Suvdan suv chiqsa, muhabbatni tushunur” Bu maqol muhabbatni tushunish va uning tabiiy oqimini anglashni bildiradi.

Bulbul va gul – Bulbulning gulga bo‘lgan muhabbati ko‘plab maqollarda ishlatiladi. Bulbul, sevgi va fidoyilikning ramzi sifatida, sevgi tufayli o‘zini qurbon qilishga tayyor ekanligini bildiradi. Gullar esa muhabbatning go‘zalligi va qadriyatlarini ifodalaydi. Masalan: “Gul qadrini bulbul bilar” – Bu ifoda sevgi va ehtirosni anglatadi, sevgan kishi to‘g‘ri va chin dildan muhabbatni qadrlaydi. “Sayroqsiz bulbul bo‘lmas” – Bu maqol sevgi va ehtirosning inson hayotidagi muhim o‘rni haqida gapiradi, sevgi bo‘lmasa, hayot bo‘sh va ma’nosiz bo‘ladi. “Sayroqsiz bulbul bo‘lmas, sevgisiz inson” – “Sayroq” [kuylash] bulbulning tabiiy holati, demak, sevgisiz insonning hayoti bo‘sh va ma’nosiz

Gul va tikon – “Gulni gul dermu kishi gulning tikoni bo‘lmasa” Bu maqol, "gulkor" bo‘lishning asl qiymati yoki go‘zalligi, faqat uning jiddiy qiyinchiliklaridan [tikonidan] o‘tgan kishi tomonidan to‘liq tushunilishi mumkinligini bildiradi. Maqoldagi “gul” — bu go‘zallik, ma’naviy yuksaklik yoki maqsad, “tikoni” esa shu go‘zallikka erishish uchun turli sinovlar, muammolar yoki qiyinchiliklardir. Shunday qilib, bu maqolda shunday ma’no bor: biror yaxshi narsa yoki maqsadga erishish oson emas, bunga yetishish uchun ba’zan qiyinchiliklardan o‘tish kerak. Yani, tikonlar [muammolar] gulni [yaxshi natijalarni] yanada qadrlashga yordam beradi. bo‘ladi. Bu ifoda, odamning qalbi va hissiyati bo‘lmasdan, to‘liq baxtni topishi qiyin ekanini ta’kidlaydi

Parvona va olov – Parvona olovga uchib, o‘zini yo‘qotishga tayyor bo‘lganidek, sevgi ham insonni o‘zini qurbon qilishga undashi mumkin. Parvona



olovga qarshi uchib, uni sevish orqali muhabbatning sadoqat va fidoyilikka olib borishini ko‘rsatadi. “Parvonani ishq etmasa mast, urg‘aymu o‘zini o‘tga payvast” – Sevgi uchun barcha xavf-xatarlarni qabul qilish va o‘zini qurbon qilishni bildiradi.

Yor va it – “Bevafo yordan vafodor it yaxshi” maqolida yorning bevafo bo‘lishi va itning sodiq bo‘lishi orqali muhabbatning sodiqlik va sadoqat bilan bog‘liq ramzlari ta’kidlanadi. Itning sodiqligi, vafodorligi va do‘stona munosabatlari, sevgi va ishqning to‘g‘ri va barqaror bo‘lishi kerakligini anglatadi.

Qiz va chol – Bu obrazda yosh va tajribali odamlarning muhabbati va o‘zaro munosabatlari aks etadi. Yosh qizning, ba‘zan qari cholga qaraganda, haqiqatni tanlashi va o‘zining haqiqiy tuyg‘ularini qadrlashi haqida so‘z boradi. “Qiz qarisa qozi bo‘lur, qari cholga rozi bo‘lur” – Bu yerda, yoshning tajriba va haqiqiy muhabbatni qadrlashini anglatadi.

Eshak va kesak – “Dardi yo‘q kesak, ishq yo‘q eshak” maqolida eshakning ishqdan xoli bo‘lishi va dardni his qilmasligi orqali muhabbatning ruhiy ta’siri va uning hayotdagi o‘rni ko‘rsatiladi. Ishq va muhabbatning dard va iztirobni keltirib chiqarishi, insonni o‘zgartirishi va chuqurlashtirishi haqida fikr yuritiladi.

O‘t – muhabbatning qizg‘inligi va davomiyligi bilan birga bir qator ma’nolarni ifodalaydi:

Paremalarda “o‘t” muhabbatning issiq va qizg‘inligini, unga bo‘lgan ehtiyoj, oila ramzi munosabatlarning keskinligi, oshiqlar o‘rtasidagi iliqlik, hayot davomiyligi ramzi hamdir. Masalan, Muhabbat – o‘t-olov [jo‘shqinlik], Muhabbatsiz umur o‘t olmas ko‘mir [qadrsizlik], Ishq – muqaddas o‘t Havas – loyqa suv [e’tiqod], O‘choqdagi o‘t boshqa, Yurakdagi o‘t boshqa [harorat] ramzi o‘laroq ifoda etilgan bo‘lsa, “Tutunsiz o‘t bo‘lmas, yorsiz yigit” maqollaridagi tasvirdan guvoh bo‘lamizki, muhabbat, sevgi va insonning hayotiy tajribalari bilan bog‘liq chuqur ma’no anglatadi.

Tutunsiz o‘t – O‘t, hayotning yengil va jonli belgisi sifatida ko‘riladi. Ammo tutun bo‘lmasa, o‘tning kuchi yoki ta’siri sezilmaydi. Bu yerda tutun o‘tning yorqinligi va qizig‘ini tasvirlaydi. Agar o‘t bor bo‘lsa, u harorat va nur chiqaradi, ammo tutun uni yanada kuchaytiradi. Bu obraz, sevgining hayotdagi maqsadga yetishish yoki o‘zini namoyon qilish uchun zarur bo‘lgan hissiy kuch va tajribalarni bildiradi.

Yorsiz yigit – Yigitning “yor”i [ya’ni, sevgan insoni] bo‘lmasdan, o‘zining kuchi yoki maqsadi bo‘lmasligi tasvirlanadi. Yigitning yori [sevgan insoni] uning hayotidagi eng muhim maqsad va yo‘nalishdir. Yorsiz, ya’ni sevgisiz yigit, o‘zining haqiqiy maqsadiga yetishga yoki hayotdagi maqsadlarini amalga oshirishga qodir emasligini ifodalaydi. “Ishq yo‘lining o‘tiga, do‘zax o‘ti uchquncha yo‘q” maqolasi



chuqur ma’noga ega bo‘lib, sevgi va uning inson hayotidagi o‘rnini ta’riflashda ishlatiladi. Ushbu maqoladagi ramziy obrazlar quyidagicha talqin qilinishi mumkin: Do‘zax o‘ti – Do‘zax, qiyinchiliklar, iztirob va azoblarni ramziy ravishda tasvirlaydi. “Do‘zax o‘ti” esa, insonni zararlovchi, yo‘q qiluvchi kuchlarni yoki og‘ir, yo‘qotuvchan tuyg‘ularni ifodalaydi. Bu o‘t, shiddatli va yomon energiyaga ega bo‘lib, sevgi yo‘li bilan solishtirilganda, qayg‘u va azobni tasvirlaydi. Uchqun, o‘tning kichik bir qismi bo‘lib, ba’zan issiq yoki zararlovchi bo‘ladi. Maqoladagi umumiy ma’no shundan iboratki, sevgi [ishq] yo‘li do‘zax o‘tining uchqunlaridan ham kuchli va yuksakdir. Sevgi, insonni o‘zgarishlar va yuksalishlar sari olib boradigan bir o‘t bo‘lib, uning kuchi yomonlik yoki qiyinchiliklarga qaraganda ancha yuksakdir. Sevgi, ba’zida iztirob va qayg‘uga olib kelishi mumkin bo‘lsa-da, uning maqsadi va ta’siri hamisha insonni oliyjanoblikka va ruhiy poklanishga yetaklaydi. Shu bilan birga, bu maqoladan shuni ham anglash mumkinki, sevgi yo‘li ko‘plab qiyinchiliklar va azoblarni keltirishi mumkin, ammo bu yo‘lda uchqunlar kabi kichik qiyinchiliklar ham, oxir-oqibatda insonni mukammallikka, ruhiy yuksalishga olib keladi.

Ishq yo‘li – Bu obraz ham maqollarimizda yetakchi tasvirlardan biri hisoblanadi. Muhabbat va uning yurak va ruhidagi sayohatini bildiradi. Ishq yo‘li, odatda, o‘zini sevgan insonga bo‘lgan tuyg‘ular, ruhiy azoblar, va yuksalishlarni ifodalaydi. Bu yo‘l, ba’zan nozik va murakkab bo‘lsa-da, insonni to‘liq o‘zgartiradi, uni oliyjanob maqsadlar sari yetaklaydi. “Yo‘l yo‘ldoshing chog‘lab tursa, Yo‘ldoshim deb chog‘lama, Ko‘ngli senga bo‘lmaganga, sen ham ko‘ngil bog‘lama” insonlarning o‘zaro munosabatlaridagi halollik va samimiyatni ta’kidlaydi. Bu maqolda sevgi, do‘stlik yoki ishonchning asl va chin bo‘lishi kerakligi haqida so‘z yuritiladi. Maqolning ramziy ma’nosi shundan iboratki, agar kimdir siz bilan bir yo‘lni bosib o‘tayotgan bo‘lsa [ya’ni, birgalikda yurayotgan yoki sizga yaqin bo‘lsa], u sizning “yo‘ldoshingiz” deb ataladi. Ammo, agar uning qalbi sizga qaramasa yoki chin dildan sizni qadrlamasa, unga chuqurroq his-tuyg‘ular yoki ishonch bermang. Bu maqol, munosabatlarda ehtiyotkorlik va samimiyatga chaqiradi. Har bir insonning his-tuyg‘ulariga va niyatlariga hurmat bilan yondashish, o‘zaro ishq yoki do‘stlikni faqat haqiqiy va o‘zaro mehr-oqibat asosida qurish zarurligini anglatadi.

Ko‘ngil – Bu obraz odatda, insonning ichki dunyosini, hissiyotlarini, ruhiy holatini, qalbini anglatadi. Ko‘ngil, sevgi, umid, qayg‘u, baxt va boshqa tuyg‘ularni ifodalaydi. Shuningdek, ko‘ngil insonga nisbatan hissiy va ruhiy aloqalarni o‘rnatishda asosiy omil hisoblanadi. Ko‘ngildan suv ichar – Suv, hayot va yashash manbai sifatida ko‘plab ma’nolarda ishlatiladi. Ko‘ngilning eng chuqur ehtiyojini qondirish, ruhiy va hissiy holatni tinchlantirish yoki rohatlantirishni anglatadi. Bu



maqola, odatda, insonlar o‘rtasidagi samimiy aloqalarni, his-tuyg‘ularni va tushunishni ifodalashda ishlatiladi. U, asosan, bir kishining boshqasining ruhiy ehtiyojlarini va ichki holatini tushunib, unga yengillik yoki tasalli berishini bildiradi. Maqoladagi “suv ichar” iborasi, ko‘ngilning to‘lib-toshib, orom topishi uchun zarur bo‘lgan narsani ifodalaydi.

Chinor – “Chiroying borida chinoringni top” degan ramziy ifoda, aslida insonning tashqi go‘zalligiga yoki muvaffaqiyatiga qaramay, ichki yaxshilik, halollik va haqiqatni topish kerakligini bildiradi. Bu ifoda odamni faqat tashqi ko‘rinishga emas, balki ichki fazilatlarini, ma’naviyatni qadrlashga undaydi. Shuningdek, “chinor” o‘zida kuch, barqarorlik va uzun umr ramzi bo‘lib, bu ifoda hayotdagi haqiqiy qadriyatlar va o‘zligingizni topish zarurligini ta’kidlaydi.

Parvona – “Parvonani ishq etmasa mast, urg‘aymu o‘zini o‘tga payvast” maqollaridagi ramziy belgilar insonning ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini va shaxsiy munosabatlarini ifodalaydi. Parvona o‘z sevgisiga bo‘lgan ishq tufayli o‘zi o‘ldiruvchi olovga uchadi. Bu yerda muhabbat o‘zini qurbon qilish sifatida ko‘rsatilgan. Sevgi insonni o‘z maqsadlariga qaratadi va ba’zan u o‘zini o‘limga olib boradi.

Gul va bulbul – “Gul qadrini bulbul bilar” Bulbulning gulga bo‘lgan sevgisi orqali odamlar, o‘z hayotlarida muhim va qadrlil narsalarni tushunishlari kerakligini ifodalaydi. Gul va bulbulning o‘zaro munosabati orqali hayotdagi muhim qadriyatlar va go‘zallikni anglash kerakligi bildirilib turibdi.

It – vafodorlik, sevgi va sadoqat ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. “Bevafo yordan vafodor it yaxshi” – Bu yerda bevafo do‘st yoki yordaning o‘rniga vafodor itni tanlash, ya’ni do‘stlikda sadoqat va ishonch muhimligini anglatadi. Bevafo insonlardan ko‘ra vafodor va sodiq do‘stlar yaxshiroqdir.

Eshak – ishqdan xoli kishilar obrazi. “Dardi yo‘q kesak, ishq yoq eshak” – Bu ifoda, dard va sevgi insonga katta ta’sir o‘tkazishini bildiradi. Bu yerda sevgi va dard inson hayotini chuqurlashtiradi, boshqalar esa bunday his-tuyg‘ulardan xoli bo‘lishi mumkinligini bildiradi

Qurbaqa – “Birov parini sevibdi, birov quvbaqani” – Bu ifoda sevgi va munosabatlarning xilma-xilligini tasvirlaydi. Har bir insonning o‘ziga xos istaklari, ehtiyojlari va tanlovlari bor. Bir kishi mukammal sevgini izlaydi, boshqasi esa oddiyroq, kamroq talab qiladigan hislarni qadrlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bu ramziy obrazlar, o‘zbek xalq maqollarida muhabbatning turli jihatlarini — sevgining go‘zalligi, sadoqat, fidoyilik va ba’zan esa dard va iztirobni tasvirlaydi. Ular orqali inson qalbida bo‘layotgan tuyg‘ularni

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



chuqurroq tushunishga yordam beradi. Sevgi, sodiqlik, tushunish, va o‘z-o‘zini anglash kabi qadriyatlarni ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya – T.: 2019. – 248b.
2. Xoliqova G.A. Maqollarning o‘zbek xalq og‘zaki ijodida o‘rganilishi Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar// – Samarqand 2018. – B. 239
3. Yoqubjonova M. Konsept va uni o‘rganish metodlari xususida// Yosh tarjimashunos//– T. : 2020. –B. 144.
4. Sharipova O‘.,Yo‘ldoshev I. Tilshunoslik asoslari – T.: 2006. – B. 92.
5. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” – T.: 2001 –B. 448.
6. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” – T.: 2001 –B. 448.